
SINOV TARIQASIDA AHOLINI RO'YXATGA OLISH O'TKAZILMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 710-son qaroriga muvofiq, aholini sinov tariqasida ro'yxatga olish 2021-yil 1-25-noyabr kunlari Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumani, Xorazm viloyatining Xiva shahri hamda Toshkent shahrining Yashnobod tumanida amalga oshiriladi.

Aholini sinov tariqasida ro'yxatga olish ikki xil usulda, ya'ni 1-5-noyabr kunlari Internet tarmog'i orqali va 11-22-noyabr kunlari qog'oz shaklida ro'yxatga oluvchi xodimlar tomonidan uyma-uy yurgan holda amalga oshiriladi.

Internet tarmog'i orqali aholini ro'yxatga olish uchun maxsus axborot tizimi (<https://census.stat.uz/>) ishlab chiqilgan. Mazkur axborot tizimida sinov o'tkazilishi belgilangan hududlar aholisi uchungina emas, balki, respublikamizning barcha hududlarida yashovchi va boshqa davlatlarda vaqtincha bo'lib turgan fuqarolar uchun ham tizimga kirib, ro'yxatdan o'tish imkoniyati yaratilgan.

Sinov tariqasida Internet tarmog'i orqali aholini ro'yxatga olish natijasida ushbu axborot tizimining ishlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammo va kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish choralari ko'riladi hamda 2023-yilda respublikamizning barcha hududlarida o'tkaziladigan aholini ro'yxatga olish davriga qadar foydalanuvchilar uchun yanada qulay holga keltiriladi.

Qo'shtepa tumani statistika bo'limi.

2021-11-10 21:05:47